XALQ OG'ZAKI IJODI (TOPISHMOQ VA TEZ AYTISHLAR) YORDAMIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI BOYITISH

Yoqubova Diloromxon Toxirjon qizi
Qo‘qon universiteti 3-bosqich talabasi
Email:dilimdilim329@gmil.com

Annotatsiya: Mazkur maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini boyitish muammosiga bag‘ishlangan bo‘lib, Xalq og‘zaki ijodining eng boy janrlaridan topishmoq va tez aytishlarning ahamiyatini, ularni maktabgacha ta'limda qo‘llanilishi, imkoniyatlarini o‘rganish.Ularni aqliy faollikni oshiruvchi, mantiqiy tafakkurini, obrazli tasavvurini kengaytiruvchi eng samarali janrlardan biri ekanligi yoritilgan. Maqolada topishmoq turlari, uni qo’llash bo’yicha metodlar, qiziqarli usullar bilan yoritilgan. Topishmoq va tez aytishlar yordamida bolalar mantiqiy tafakkurini rivojlanadi, ular orqali so’zlarni to’g’ri talaffuz qilish, so’z boyligini oshirish, xotirasini mustahkamlash, faol nutqini rivojlantirish, diqqatni jamlash va nutq ravonligini oshirishga bag’ishlanadi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, nutq rivojlanishi, maktabgacha yosh, topishmoq, tez aytishlar, ta’lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar.

Kirish

Xalq og‘zaki ijodi xalq tomonidan yaratilgan bo‘lib, "xalq donoligi, xalq donishmandligi" ma’nolarni anglatadi. Xalq og‘zaki ijodining ikkinchi nomi "folklor" deb ham ataladi. U badiiy asar turiga mansub xilma-xil janrlardan iborat bo‘lib, xalqning dunyoqarashi, estetik zavqi, ijodiy intilishlarini aks ettiradi.Folklor yuksak badiyligi bilan ham ajralib turadi.Unda voqelikni ifodalashning doston, ertak, maqol, qo‘shiq, topishmoq , afsona, rivoyat va askiya singari xilma-xil janrlari shakllangan.Topishmoqlar hamma davrlardan yaratilgan. Ijtimoiy hayotga yangi narsa va hodisalarning kirib kelishi bilan ular haqida topishmoqlar ham yaratila borgan. **[O.Safarov: 9-289]**

Xalq og‘zaki ijodi azal-azaldan, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib, yetib kelgan. Xalq og‘zaki ijodi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni so‘z boyligi oshadi, so‘zlarni aniq, ravon talaffuz qilishni o‘rganadi, nutq madaniyati shakllanadi.Aytaylik r harfi bilan boshlanuvchi tez aytishlar bor. Misol: Ra'no rasmlariga rang-barang rang tanladi.

Nimaga? chunki shu tez aytishni bola ko‘proq qaytarsa, nutqi yaxshi rivojlanadi. Topishmoqlarning til xususiyatlarini, xususan ularning sintaktik xususiyatlarini yaxshi o‘rganmay, topishmoqlarning mazmuni, o‘ziga xosligini tushunish qiyin.Chunki topishmoq xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan keskin farqli holda tasvir obyektini yoki aytilmoqchi bo‘lgan fikrni aniq-ravshan, tushunarli qilib emas, imkoni boricha mavxum qilib, yashirib odatdagidan butunlay boshqacha qilib tasvirlashga intiladi. **[M.Saparniyozova: 28-29]**

Metodologiya

Analitik metod: Ilmiy adabiyot va pedagogik tajribalarni o‘rganish. Kuzatish va so‘roq: Bolalar xalq og‘zaki ijodini o‘rganishidagi oldingi holatini, natijasini, usullarga munosabatini kuzatish ota-onalarning fikrlari to‘g‘risida ma’lumot olish.

Tadqiqotning dolzarbligi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishi uchun xalq og‘zaki ijodining samaradorligini aniqlashdan iborat.Topishmoqlar ma’no va tasvirlarni taxmin qilish, muammolarni yechish qobiliyatini shakllantiradi, tez aytishlar esa nutq tezligi, aniqligi va artikulyatsiyani rivojlantiradi.

Misol: Bozordan oldim bir dona,

Ochim ko‘rsam ming dona.J: (anor)

Asosiy natijalar

Topishmoqlar va tez aytishlarni maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanish jarayoniga ta'siri katta samara beradi; Xalq og‘zaki ijodini qo‘llashning samarali usul, metodlar ishlab chiqildi; Nutqni boyitish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Misol: Har kuni aqlni charxlash uchun mantiqiy topishmoqlar yechish sonini ko‘paytirish kerak. Bog‘chadagi guruhga logoped keldi, ularni so‘zlarni talaffuz qilish darajasini, qaysi bolalarda qanaqa harfni ayta olmaslik xususiyati borligini aniqladi. Demak o‘sha harf bilan boshlanadigan tez aytishlarni ko‘proq ayttirish kerak. Nimaga: bolalarni nutqini rivojlanishi uchun.

Natijalar maktabgacha ta'lim tashkilotida ishlovchi mutaxasislar, tarbiyachilar, ota-onalar uchun foydali bo‘ladi. Ular topishmoqlar, tez aytishlarni samarali qo'llash orqali bolalarni turli xil ko‘nikmalari va nutqiy qobiliyatini rivojlantirishga yordam berdi. Topishmoq va tez aytishlar maktabgacha yoshdagi bolalardan boshlab o‘rgatiladi. Topishmoqlarni kichik guruhdan boshlab asta-sekinlik bilan o‘rgatish kerak bo‘ladi. Chunki topishmoqlar bolalarni aqliy rivojlanishida kata rol o‘ynaydi.

Topishmoqlar inson, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, hamma vaqt real voqelikka asoslanadi. Unda atrofimizni o‘rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Xalq og‘zaki ijodining eng boy janrlaridan biri bo‘lgan topishmoq ikki qismdan iborat bo‘lib, topishmoqning asosiy qismi bo‘lgan javob obrazlar orqali jumboqlangan obyekt narsaning otini aytib berishdan iboratdir. **[Z.Mahkamova: 9-10]**

Har bir topishmoq o‘ziga xos shakl va mazmunga ega bo‘lgan mustaqil bir asardir.Topishmoqni bolalarga qiziqarli qilish uchun ko‘rgazmali vositalardan foydalanish kerak bo‘ladi.Topishmoqning turlari: Faslga oid.

Misol: Bir fasl bor tengsiz chiroy,

Kurtak, gullar, dovuchcha,

O‘ylab aytgin sen picha. J: (Bahor fasli)

Narsa-buyumlar haqida.
Misol: Yozib umrin tugatar,
Serharakat shu qadar. J: (qalam) ,

Hayvonlar haqida.
Misol: Bo‘yni so‘roq shaklidir,
Kalta dumli zo‘r maxluq.
Sahrolarning bezagi,
Suvsizlikdan etmas churq.J:(tuya),

Sabzavotlar haqida.
Misol: Mushtdek dumaloq,
Tanasi oppoq,
To‘g‘rasa oyim,
Yig‘laydi doim. J:(piyoz).
Mantiqiy topishmoq.

Misol: Yerdan olish oson,Uzoqqa otish qiyin.J:(pat).

[N.Ermatov: 7-23]Shu kabi topishmoqlar bolalarni diqqatini oshiradi, mantiqiy fikrlash, idrok va tafakkurni rivojlantiradi, aqlni charxlaydi, xotirani mustahkamlaydi. Topishmoqlar bolalarni yoshiga moslab tanlanadi. Topishmoqlar adabiyot va san'at taraqqiyotiga barakali ta'sir etdi. Ular adabiyotimiz tarixida chiston, muammo, muvashshax, ta'rix kabi lirik janrlarning paydo bo‘lishi va rivojida katta ahamiyatga ega. Ular bolalar va yoshlarimizning fikr doirasini kengaytirish, topqirligini oshirish va muhokama qobiliyatini o‘stirishning muhim estetik vositasidir.**[O.Safarov: 290]**

Tez aytishlarning ahamiyati. Tez aytishlar- nutqni tez va aniq ayta olishini oshiruvchi xalq ogʻzaki ijodi. U bir yoki ikki misra (qatordan) iborat boʻladi, ba' zan 4 misrada she'riy shaklda ham uchrab turadi, murakkab tovushlar birikmasidan hosil boʻladi. Tez aytishlar barisini birinchi harfi bir xil boʻladi. Misol: Gʻani gʻildirakni, gʻizillatib gʻildiratdi. Shu harflarni bolalar nutqida eng kichkina bolalar nutqidagi holat: Masalan; Ba'zi bolalar sh ni ayta olmaydi, s ni ayta olmaydi, z ni ayta olmaydi. Tajriba Qoʻqon shahridagi 11-maktabgacha ta'lim tashkilotininng kichik guruhdagi bolalar guruhida oʻttizta bola bor, ularning oʻntasida sh harfini ayta olmaslik xususiyati borakan. Logoped kichik guruhdagi bolalar nutqi bilan individual ishlar olib borishi kerak. Oddiy va sodda tuzilgan tez aytish turi ham bor. Bu tez aytishlar osonligi bilan boshqa tez aytishlardan farq qiladi. Misol: Bu bogʻcha, boshqa bogʻcha. Murakkabroq tez aytishlar ham mavjud. Ularning xususiyatlari bir-biriga oʻxshaydigan soʻzlarni oʻrnini yoki harflarni almashtirib qoʻymasdan aytish, qiyin soʻzlarni yodda saqlash, soʻzlarni tushunarli tarzda va ravon talaffuz qila olish.

Misollar: Shamol shovullab shovqin soldi,
Shalpangquloq qoʻrqqanidan shataloq otib qoldi;

Qishda kishmish pishmasmish,

Pishsa kishmish qishmasmish; Tez aytishni tez-tez ayt.

Tez aytishni bir nafasda ushlab nafasni chiqarib yubormasdan aytish uni sanoq bilan sanab turish kerak boʻladi. Tez aytishlar maktabgacha ta'limda oʻrta guruhdan boshlab, oʻrgatib boriladi.

Imkoniyatlari. Topishmoq va tez aytishlar maktabgacha ta'limdan qoʻllanilib borishi, bolalarni har tomonlama (psixologik, pedagogik, jismoniy) rivojlanib borishi, interfaol oʻyin sifatida qoʻllanilib, bolalarni nutqiy faoliyatini ragʻbatlantiradi. Undan samarali foydalanish uchun qiziqarli usullar qoʻllay olish. Guruh boʻlib, topishmoq topish yoki tez aytish musobalar, viktorinalar, zakovatlar oʻtkazdirsa boʻladi.

Xulosa

Xalq ogʻzaki ijodi orqali har bir inson oʻziga ozuqa oladi, har tomonlama rivojlana boshlaydi. U nutqni boyitishning eng kerakli manbasi hisoblanadi. Ota-onalar bolalariga xalq ogʻzaki ijodidan oʻqib bersa, yoki birgalikda topishmoq, tez aytishlarni yodlab aytishsa, bolalarni xalq ogʻzaki ijodiga mehr-muhabbati uygʻonadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Safarov, O. (2010) "Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi". Darslik.
2. Saparniyozova, M. (2007) "Oʻzbek xalq topishmoqlarining semantikasi va sintaksisi". Oʻquv qoʻllanma
3. Mahkamova, Z. (2017) "Bitiruv malakaviy ishi".
4. Ermatov, N. (2013) "Toʻqson toqqiz topishmoq".